

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна

МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли

МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna

MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўқтамовна

МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАҲДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ 40-48

Maҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРГОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich

O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi

XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна

БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ

ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich

AGRAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i>	
РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i>	
МETHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH	116-121
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ	122-128
<i>Talapov Baxriddin Aljanovich</i>	
KONSTITUTSIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i>	
JAMIyat HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i>	
РАҶАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН	141-147
<i>To'xtayev Xakim Primovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i>	
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i>	
GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-DUNYOVII DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i>	
МА'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI	173-178
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	

Халметова Мехрибону Гайратжоновна
**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ** 179-186

Abdijabbor Amanov
**MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI** 187-193

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna
AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI 194-201

Odinayev Bekqul Imamqulovich
LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN 202-210

Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev
**"DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR" DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR
QIYOSI** 211-217

Saidov Akmal Azimovich
**"TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA
MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH** 218-224

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li
**SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA
AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI** 225-231

Жўраев Дилмурот Мухторович
**МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН
НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА
ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР** 232-240

Эшонхонов Камолхон Маматхонович
**БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ
КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР** 241-246

Бўриев Одил Қобилович
**КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ
МЕЗОНИДИР** 247-253

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li
**"ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING
MAVJUD HOLATI** 254-259

Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола
**ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ
КОММУНИКАЦИИ** 260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i>	
ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i>	
KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i>	
INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i>	
REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i>	
TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i>	
IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

13.00.00- Педагогика фанлари

Abdullaeva Feruza Suyunovna

O'zDJTU, Ilmiy innovatsion ishlanmalarni
tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEKNOLOGIYALARING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda terminlarning o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda, kasbiy terminologiyani o'rgatishdagi zamonaviy interaktiv texnologiyalar va ularning ta'limgagi o'rni haqida so'z yuritildi. Shuningdek kash hunar leksikasi va terminologik lexisikaning xususiyatlari va ularning bir biridan farqlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin, so'z, mutaxassislik terminlari, kasb- hunar leksikasi, terminologik leksika, amaliyat, milliy terminologiya

Abdullaeva Feruza Suyunovna

Uz SWLU, Scientific and innovative developments
head of commercialization department, pedagogy
doctor of philosophy (PhD), associate professor

THE ROLE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING PROFESSIONAL TERMINOLOGY

Abstract. This article talks about the role and importance of terms in modern linguistics. In addition, modern interactive technologies for teaching professional terminology and their role in education were discussed. Also, the characteristics of professional lexicon and terminological lexicon and their differences from each other are studied.

Keywords: terminology, term, word, specialist terms, professional lexicon, terminological lexicon, practice, national terminology.

Абдуллаева Феруза Суюновна

Уз ГУМЯ Научные и инновационные разработки
руководитель отдела коммерциализации, педагогика
доктор философских наук (PhD), доцент

РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье говорится о роли и значении терминов в современном языкоизнании. Кроме того, обсуждались современные интерактивные технологии преподавания профессиональной терминологии и их роль в образовании. Также изучаются особенности профессиональной лексики и терминологической лексики и их отличия друг от друга.

Ключевые слова: терминология, термин, слово, специальные термины, профессиональная лексика, терминологическая лексика, практика, национальная терминология.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N42>

Kirish. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi buyuk Istiqlol g'oyasining ilk g'alabasi, uning erki, huquqi, to'liq amal qilishi uchun kurash yurtimiz tarixida mustaqillik uchun kurashning ramzi sifatida abadiy qoladi. Yosh avlod qalbi va shuuriga ona-Vatanga cheksiz muhabbat, milliy Istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularining chuqur singdirib borilayotgani shu abadiylikning kafolatidir. Bu jarayonni davom ettirish, tilimiz sofligi va betakror jozibasi uchun kurashish har birimizdan jiddiy mas'uliyat talab qiladi. Chunki til milliy ong, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantiruvchi, ularning uzviyligini ta'minlovchi yetakchi vosita sanaladi. Bunda terminologiya va hujjatchilikning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Adabiyotlar sharhi va metodologiyasi. Terminologiya ("termin" va "logiya") [1] leksikaning bir sohasi bo'lib, muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish, tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui hisoblanadi. Terminologiyaga yana tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi deb ta'rif bersak ham mubolag'a bo'lmaydi. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan, fizika terminologiyasi, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O'z navbatida u, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fammatik kategoriyalarning leksikalashushi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va mutnazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chala o'tkazgich — nim o'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiya ma'lum darajada barqarorlashgan bo'lib, barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalgalashiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natija. Ma'lumki, so'zlar nutqimizda qo'llanish doirasiga ko'ra faol va nofaol kabi turlarga bo'linadi. Kundalik turmushimizda keng qo'llanishda bo'lgan so'zlar faol so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar sirasiga *ota, ona, aka, uka, opa, singil, ish non, kitob, muktab, muallim, daftar, paxta, uy, meva, tuz, choy, o'quvchi, olov, yaxshi, olov, yomon, yemoq, kiymoq, pishirmoq, bormoq, kelmoq, bir, besh, o'n, yuz* va boshqa shu kabi so'lar kiradi. Kundalik turmushda kam qo'llanadigan, barcha uchun birdek tushunarli bo'lmagan ayrim so'zlar nofaol so'zlar guruhini tashkil etadi. Nofaol so'zlar sirasiga bugungi kunda iste'moldan chiqqan *bilga, ulus, xoqon, budun, tilmoch, bitik, o'miz* kabi arxaizmlar; yaqin o'tmishga qadar keng qo'llanishda bo'lgan va tarixiy jarayon tufayli iste'moldan chiqqan

mirshab, yuzboshi, darvesh, qalandar, amir, qul, cho'ri, kaniz, o'lpon,sovut, paranji, mirza, zindon, qozi kabi istorizmlar; ilm-fan, texnika rivoji bilan bog'liq tarzda tilimizda paydo bo'layotgan, boshqa tillardan kirib o'rnashayotgan **menenjer, menejment, broker, nou-xau, shou, lizing, kliring, sertifikat, litsenziya** kabi neologizmlarni kiritish mumkin.

Umumiste'moldagi so'zlar bir yoki bir necha ma'noga egaligi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, **bug'doy, no'xat, ajriq, terak, piyola, o'rdak, qumursqa, qurt, oltmish, men, sen, o'rik, shaftoli** kabi so'zlar bir ma'noli bo'lsa, **burun, yuz, ko'z, qirq, qir, sur, tur, to'r, bo'z, tuz, uy, qo'y, tol, qulqoq, bo'l, tor** kabi yuzlab, minglab so'zlarning har biri bir nechadan qo'shimcha ma'nolarga ham egadir. Buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy asarlarida bирgina "shoh" so'zi, **shoh, podshoh, olloh, tangri, eng go'zal, sabrli shaxmatning bosh donasi** kabi mustaqil ma'nolardan tashqari birikma holida yana 54 ma'noda qo'llanganligi "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" [2] 3-tomida qayd etilgan. Mana shu bирgina misolimizning o'ziyoq o'zbek tilining naqadar boyligidan, so'zlarining serjiloligi, ko'pma'noliligidan dalolat beradi. So'zlar umumxalq tiliga, adabiy tilga yoki ma'lum shevagagina xosligi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ham so'zlarning talaffuz etilishi orqali ularning ma'lum shevaga, ma'lum hududga xos fonetik, leksik yoki morfologik belgilarigina farqlanib qolmasdan, nutq egasining keksa yoki yoshligi, ayol yoki erkakligi, ma'lumoti, kasbi-kori, hayotiy tajribasi, lug'at boyligi, madaniyatidan ham darak berib turadi.

Tilda shunday so'zlar ham borki, ular ma'lum bir fan (masalan, tilshunoslikka oid **tovush, fon, fonema, ega, kesim, aniqlovchi, aniqlanmish, sifatlovchi, sifatlanmish, to'ldiruvchi, hol, gap, undalma** va h.), texnika (**kalit, ko'targich, qisqich, gayka, shayba, bolt** va h.), sport (**to'p, to'r, darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol** va h.), madaniyat (**sahna, musiqa, qo'shiq, lapar, raqs, iyo, soz, nutq** va h.)ga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so'zlar terminlar deb yuritiladi. Ularni o'rganuvchi soha esa terminologiya deb ataladi.

Termin so'zini Abdurauf Fitrat 1927-yilda nashr etilgan "Nahf" kitobida birinchi bo'lib qo'llagan bo'lsa-da, bu so'z XX asrning 90-yillariga kelibgina keng ishlatila boshladi. Ilmiy adabiyotlarda asosan "termin" so'zi qo'llanishda bo'ldi. [4]

A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da terminga shunday ta'rif beriladi: "Termin – lotincha terminus" – chek, chegara, chegara belgisi. Fan, texnika va boshqa sohalarga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressiya va emotsiyonallikka ega emasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'mol so'zlaridan farqlanadi". (9, 88-89-b.). Keltirilgan ta'rifdan ham ma'lum bo'ladiki, terminlar o'zi tegishli sohaga doir ma'lum bir tushunchani ifodalab, faqat bir ma'nodagina qo'llanishi lozim. Shuning uchun ham terminlar nafaqat ma'lum bir soha xodimlari uchun, balki u qo'llanishda bo'lgan til egalari uchun ham umumiylis hisolanadi.

O'zbek tilining barcha leksik resurslarida bo'lgani kabi terminlarning ham o'z boyish yo'llari bor va ular tilimiz taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarga muvofiq keladi. Dunyoda chetdan so'z o'zlashtirmagan birorta ham til yo'q, degan qarash uning terminologiyasiga ham to'g'ri keladi. "Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o'zida mavjud bo'lgan so'z yoki termindan foydalilanadi, yo bo'lmasa yangi termin yasaladi" deb yozadi S.Akobirov. [5] E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy terminlarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni

quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz: Arabcha: amaliyat, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa va hokazo.

Forscha-tojikcha: bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira kabi.

Ruscha-baynalmilal: abzas, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realizm, romantizm, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari: Lotincha: abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata kabi.

Yunoncha: allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonym, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm singari.[6]

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan respublikamiz miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilimiz taraqqiyotiga, xususan uning terminologik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. "Davlat tili haqida"gi Qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o'tkazish, ularni "o'zbekchallashtirish"ga imkoniyat yaratildi. Bu esa ko'plab qadimiy so'zlarni tiriltirishning, o'zbek adabiy tiliga qabul qilishning imkonini berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, arabcha zahmat, xalq, duo, nasihat, rais, olam, kitob, maktub so'zları o'rniga emgak, el, oqish, o'g'ut, boshliq, ochun, bitik, yozoq so'zlarini, forscha shahar, guvoh, tajriba so'zları o'rniga baliq, taniq, sipok so'zlarini, ruscha parovoz, poyezd, revolyutsiya, proletar, samovar, pochta, agronom, elektr, geografiya, botanika, astronomiya, morfologiya, sintaksis kabi so'zlar o'rniga o'txona, otash arava, o'zgarish, yo'qsil, o'zi qaynar, choperxon, ekin bilg'ich, simchiroq, yer biligi, o'simlik biligi, yulduz biligi, sarf, nahv kabi so'z va iboralarni ishlatishni ko'tarib chiqdilar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi tavsiya etilayotgan so'zlarning ma'qul kelishi va me'yorlashishi ularni tilda avval qo'llanilib kelinayotgan yoki kelinmayotganiga ham bog'liq. Boshqacha aytganda, ularni ko'rish va eshitishga odatlanish me'yorlashishga ko'maklashadi. Kasb-hunar leksikasi bir qancha xususiyatlari bilan terminologik leksikadan farqlanadi. Asrlar davomida yaratiladigan kasb-hunarga oid so'zlar ma'lum kasb-hunar kishilari orasidagina qo'llaniladi va ular og'zaki nutq jarayonida shakllangan bo'ladi. Bu guruh so'zlarning imkoniyati bir kasb-hunar va u bilan shug'ullanadigan kishilar doirasida chegaralangan. Shu tufayli ularning dialektal variantlari mavjud bo'lishi ham mumkin. Bunday xususiyatlari bilan ular atamalarga qarama-qarshi turadi. Chunki atamalar fan va texnika, sanoat va qishloq xo'jaligi, ma'naviyat va madaniyat sohasiga doir rasmiy tushunchalarni ifodalaydi va ular tegishli mutasaddilar tomonidan nazorat qilib boriladi. Ilmiy tushuncha ifodasi sifatida asosan yozma shaklda vujudga keladi va umumjahon yoki umummilliylahamiyatga ega bo'ladi. Tilda ma'lum paytda paydo bo'lib, asosan so'zlashuv nutqida qo'llanilib va me'yorashib, lug'atlarga kirib ulgurmasdanoq iste'moldan chiqib ketadigan birliklar ham uchraydi. Ayollar ko'ylak qilib tikadigan turli xil materiallar va ayrim kiyim nomlari haqida shunday deyishimiz mumkin: kelin kiysin, qaynonasi kuysin; marg'ilon nusxa, bargi karam, namozshomgul, tohir-zuhra, suv paris, skarlet kabilar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tildagi me'yoriy holatlarni tayinlashda har bir tilning o'z ichki qonun-qoidalariiga tayanib, ko'pchilikka ma'qul bo'lish yoki bo'lmasslik jihatlari e'tiborga olinishi kerak. "O'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarini, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish", "Ta'lim

to'g'risida"gi davlat Qonunida qat'iy belgilab qo'yilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir.

Xulosa. Oddiy til bilan aytganda, ta'lim tizimida axborot texnologiyasi – bu “o'quvchi yoki talaba-kompyuter” o'rtaqidagi muloqotdir. Shunday ekan ayni damda ta'lim sohasidagi dolzarb mavzulardan biri bu zamonaviy pedagogik texnologiya va uni ta'limdagi o'rni hisoblanadi. Tilimizning hozirgi mavqeyi nuqtai nazaridan nutqimizda unumli-unumsizligidan, me'yorlashgan-me'yorlashmaganligidan qat'i nazar, bu birliklar lug'atlarda qayd etilishi va kelgusi avlodlar uchun saqlab qolinishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.
2. Tolipova J., Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida ZPT. / – T.: “Xalq ta'limi” jurnali, 2002, № 3. 20-24-b.
3. Qudratov R. O'quv faoliyati – ijtimoiy hodisa. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2002, № 4. 58-61-b.
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1- 2, 2020.
5. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
6. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
7. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
8. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2006.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).